

**VARAXSHA DEVORLARIDAN O‘QILGAN TARIX**

*O‘zbekiston amaliy san’at va hunarmandchilik tarixi  
davlat muzeyi Muzey buyumlari va fond to ‘plamlarini  
qayd etish va ro ‘yxatga olish bo ‘limi mudiri*

**Gafurova Kamola Mirsaliyevna**

*O‘zbekiston amaliy san’at va hunarmandchilik tarixi  
davlat muzeyi Muzey buyumlari va fond to ‘plamlarini  
qayd etish va ro ‘yxatga olish bo ‘limi ilmiy xodimi*

**Ikromova Gulhayo Zayniddin qizi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Varaxsha yodgorligi tarixi, Buxorxudotlar davrida qanday mavqega erishganligi va madaniyatning gullay boshlashi, yodgorlikdagi devoriy suratlar, ularning o‘rganilishi, O‘zbekiston arxeologiyasi va madaniyatidagi o‘rni haqida ma’lumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Buxorxudotlar, Rajfandun, ilk o‘rta asrlar, sharqiy va g‘arbiy mehmonxona, qizil xona, devoriy suratlar, karvon yo‘llari, V.A.Shishkin tadqiqotlari.

**Аннотация:** В этой статье представлена информация про исторические памятники в Варахша, о его значении в период Бухархудатов и начало расцвета культуры, изучения настенных росписей памятника, а также о его значении в археологии и культуры Узбекистана.

**Ключевые слова:** Бухархудаты, Раджфандун, раннее Средневековье, восточный и западный гостевые залы, красная комната, настенные росписи, караванные пути, исследования В.А. Шишкина.

**Annotation:** This article explores the history of the Varakhsha site, its prominence during the Bukhar Khudats era and the cultural renaissance of that time, the research into its murals, and its significance in the archaeology and culture of Uzbekistan.

**Keywords:** Bukhar Khudas, Rajfandun, Early Middle Ages, eastern and western guest halls, red room, wall paintings, caravan routes, research by V.A. Shishkin.

Qadimda Misr hududini “Nil in’omi” deyilgani kabi Buxoro hududini ham “Zarafshon tuhfasi” deyilsa xato bo‘lmaydi. Chunki aynan suv manbai tufayli bu hududda ham haligacha to‘liq o‘rganilishga ulgurmagan sivilizatsiyalar paydo bo‘lgan. Bu haqda V.A.Shishkin ham o‘z ekspeditsiyalarida keltirib o‘tgan<sup>1</sup>.

Buxoro qadimdan ko‘p nomlar bilan atalgani bizga tarixdan ma’lum. Xususan, Xurosonda hech bir shahar bu qadar ko‘p nomga ega bo‘lmagan. Milodiy V asr xitoy

<sup>1</sup> Шишкин.В.А.Варахша.-Москва:-1963

manbalarida “Nyumi”, arab manbalarida “Bumiskat”, “Madinat us-sufriya” nomlari ostida, hadislardan birida esa “Fohira” deya qayd etilgan. Bulardan eng mashhuri Buxoro hisoblanadi. Shahar nomidagi “buxor” so‘zi esa “sanamlar turgan ibodatxona” ma’nosini anglatadi. Bundan anglaymizki, islam dini kirib kelguniga qadar shahar hududida Surxondaryo hududi orqali Markaziy Osiyoda keng tarqalgan budparastlik va shu kabi bir qancha dinlar mavjud bo‘lgan.

Varaxsha hududida madaniyat, san’at va savdo-sotiqning rivojlanishiga Buxoro va Xorazm hududlari bo‘ylab o‘tgan karvon yo‘li ham bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Narshaxiy o‘zining “Buxoro tarixi” nomli kitobida har o‘n besh kunda bir kunlik, yil oxirida esa 20 kunlik bozor sayli bo‘lib o‘tishi haqida so‘z yuritgan. Bu sayl xalq tilida “navro‘zi kasho varzon, ya’ni dehqonlar yangi yili” deb atalgan.

Buxoro shahri qadimiylariga ega hisoblanib, hudud ichidagi Rajfandun yoki Varaxshanining shahardan ham qadimiyroq ekani qayd etilgan<sup>2</sup>. Varaxsha-katta qishloqlardan tashkil topgan, asosan podshohlar turadigan tepalikdan iborat bo‘lgan. Asosan, miloddan avvalgi II asrda bir-biriga tutash bir necha aholi istiqomat qiladigan qishloqlar tarzida qad ko‘targan<sup>3</sup>. Ilk o‘rta asrlarda yodgorlik va unga tutash hududlarda madaniy hayot gullay boshlagan. III-IV asrlarda O‘rta Osiyodagi bir qancha shaharlarda bo‘lgani singari bu yodgorlik ham tanazzulga yuz tutgan. Ammo V asrga kelib Buxorxudotlar davrida tepaliklar qayta tiklanadi va aholi turmush tarzi yaxshilana boshlaydi. Humkdorlarning poytaxt va yozgi qarorgohi bo‘lgan.

XX asr boshlariiga kelib bu hududda turli maqsadlarda tashrif buyurgan arxeolog olimlar va restavratorlar tomonidan keng qamrovli o‘rganish ishlari olib boriladi. Shulardan biri V.A.Shishkin bo‘lib, u o‘z izlanishlari haqida kitob va esdaliklar ham chop ettirgan. Tabiiyki Buxoro hududining ko‘p qismi cho‘llardan iborat bo‘lib, qish fasli juda sovuq, yoz faslida esa havoning isishi, havo haroratining quruqligi olib boriladigan izlanishlarga to‘sinqilik qiladi. Shunga qaramasdan, dastlabki tekshiruvlarida Shishkin bu yerda boy madaniyatga duch kelganini qayd etgan. Restavratorlar tomonidan Varaxshadagi hukmdor qasrining tahminiy tasvirlari chizilgan, tuproq qatlamlari ochilgan va tozalangan. Hukmdor qarorgohi sharqiy va g‘arbiy mehmonxona hamda Qizil xonadan iborat bo‘lgan. Shishkin o‘z izlanishlarini xarobalarning shimoli-g‘arbidagi qadimgi qo‘rg‘onlardan birining tashqi devori hamda yarim doira shaklidagi burjlarini qazib o‘rgangan<sup>4</sup>. Devorlar xom g‘ishtdan qurilgan, burjlari va devorlar bo‘ylab tuynuklari mavjud bo‘lgan. Bunday tuynuklar kamonchilar va askarlarning erkin harakatlanishi uchun qurilgan. Qurilish inshootlarini o‘rganish davomida devorlarning pishiq g‘ishtdan ishlangani aniqlandi. Bundan ko‘rinib turibdiki, bu yerda shaharsozlik ham yuksak taraqqiy etgan. 1937-yilda Shishkin

<sup>2</sup> Наршахий.Бухоро тарихи.-Тошкент:Шарқ баёни.1993

<sup>3</sup> Кличев О.А. Пойкентнинг илк изланишлари тарixidan (Л.А.Зимин тадқикотлари ва расмий ёзишмалари асосида // O‘zbekiston arxeologiyasi ilmий журнал.-Самарқанд:2016)

<sup>4</sup> To‘rayev H. Buxoro tarixi.-‘Durdon’ nashriyoti.-Buxoro-2020

Varaxshaning g‘arbiy qismida izlanishlar olib boradi. U bu yerdan aholi istiqomat qilgan qo‘rg‘on izlari va ularni o‘rab turgan devorlar bor deb tahmin qiladi. Lekin bu izlanishlari uchun u mashaqqat chekkan. Chunki bu hudud cho‘l bo‘lganligi sababli chang va qum zarralarini uning ishini qiyinlashtirgan. “Biz bu yerda devor qoldiqlarini qidirishga urinib ko‘rdik, ammo bu ish juda qiyin edi. Qurg‘oqchilik hudud bo‘lganligi sababli bu yerda chuchuk suv ta’mintoni o‘rnata olmadik. Biz o‘rganishni boshlagan joylarda aniq devor qoldiqlarini topa olmadik, lekin hududda turli o‘lchamdagи, shakldagi va yo‘nalishdagi ko‘plab qo‘rg‘onlar yaqindan tekshirilganda bularning aksariyati sug‘orish kanali qoldiqlari ekanligi ma’lum bo‘ldi. Ularni uzoq sezilarli darajada o‘rganish mushkul, cho‘l qumlari ularni o‘z qariga tortib ketganday bo‘lib, yopilib qolar edi<sup>5</sup> ”,-deya yozib qoldirgan.

Bundan tashqari Varaxshaning g‘arbiy qismida shamollar bo‘lishi hisobiga sariq qum zarralari va chang devorlarni to‘sib qo‘ygan. Kuchli shamollar bo‘ronga aylanishi hisobiga devor qoldiqlarining ko‘p qismi qattiq yemirilganini qayd etgan. Shishkinning izlanishlari natijasida bu yodgorlikdan ko‘pgina topilmalar ko‘p yillik jimlikdan so‘ng yuzaga chiqqan. U yodgorlik va uning atrofidagi aholi yashash manzilgohlaridan sopol buyum qoldiqlari, metalldan yasalgan buyumlar, chaqmoqtoshlar, bronzadan yasalgan qurollar, terrakota bo‘laklari, qadimiy sug‘orish kanallarining izlari va musulmonlar qabristoni mavjud bo‘lganligini ko‘rsatuvchi joylarni aniqlagan.

Shishkinning Varaxsha hududida olib borgan arxeologik ishlarining asosiy obyekti Buxorxudotlar saroyi bo‘lgan. Bu yerdagi qurilish uslubi G‘arbiy Osiyo, Eron, O‘rta Osiyo qurilishiga xos bo‘lib, vayronaga aylangan bino qum va loy bilan to‘ldirilgan. Shishkin Saroy zallarini turli davrlarga xos deb baholaydi. Ular qurilish texnikasi bilan farqlanib, janubiy, sharqiy devorning bir qismi va g‘arbiy devorning janubiy devorga tutash qismi u atagan “pog‘onali g‘isht” texnikasida qurilgan. Saroy qizil va sariq zaldan iborat bo‘lgan. Bu yerdagi devoriy rasmlarda ko‘pgina tasvirlar aks etgan. Xususan, relyef ko‘rinishidagi oq fil ustidagi odamlar, hujum qilayotgan yo‘lbars va boshqa hayvon tasvirlari shulardan eng mashhurlaridir. Qizil zaldagi rasmlarda asosan ov tasvirlari bo‘lgan. Sharqiy zal esa ko‘p syujetli bo‘lib, asosiy sahnada podshoh tasvirlari uchraydi.

Yillar davomida cho‘l qumlari orasida qarovsiz yotgan bu noyob buyumlarning topilishi ushbu hudud madaniyatini o‘rganish uchun keng yo‘l ochib berdi. Shu paytgacha faqatgina tarixiy qo‘lyozma va asarlarda tilga olingan va mavhumligicha qolgan yana bir madaniyat izlari aniqlandi. Vaholanki biz ko‘pgina tarixchi olimlarning asarlarida Varaxsha hududining qadim tarixga ega ekanligi haqida o‘qiganmiz. Shishkin izlanishlari bularning tasdig‘i sifatida yuzaga chiqdi.

<sup>5</sup> Шишкин.В.А.Варахша.-Москва:-1963

Varaxshadagi qazishma jarayoni davomida topilgan bu ashyolar Narshaxiy ma'lumotlarining tasdig'i bo'lib, izlanishlar yana davom etishi kerakligini isbotladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Наршахий. Бухоро тарихи. Шарқ баёни. Тошкент.1993 й.
2. Кличев О.А. Пойкентнинг илк изланишлари тарихидан (Л.А.Зимин тадқиқотлари ва расмий ёзишмалари асосида // O'zbekiston arxeologiyasi илмий журнал. Самарқанд. 2016 й.)
3. Шишкин.В.А.Варахша. Москва.1963 й.
4. To'rayev H. Buxoro tarixi.-“Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2020 й.